Jahon iqtisodiyotida investitsiyalar uchun raqobat tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin egallaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv tajribasi, xalqaro standartlarni joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, xizmatlar eksportini oshirish va hududiy iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ko‘plab mamlakatlarda xorijiy kapitalni jalb qilish maqsadida soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari, maxsus iqtisodiy zonalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda infratuzilma loyihalaridan samarali foydalanilmoqda.

O‘zbekiston uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish iqtisodiy rivojlanishning muhim

omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish, turizm xizmatlarini kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar investitsion jozibadorlikni yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, xorijiy kapital, ilg‘or texnologiyalar va xalqaro boshqaruv tajribasining keng jalb etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. 2024–yilda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 493,7 trln so‘mni tashkil etgan. Shundan 150,5 trln so‘mi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, 159,6 trln so‘mi esa kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelgan [8]. Mazkur ko‘rsatkichlar xorijiy kapitalning mamlakat iqtisodiy o‘sishidagi ahamiyati izchil ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, investitsiyalarni samarali jalb etishda investitsiya muhitini yanada takomillashtirish bilan bir qatorda, ularni tarmoqlar va hududlar kesimida maqsadli yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Investorlar uchun qulay iqtisodiy rag‘batlar yaratish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash hamda infratuzilmaviy loyihalarni rivojlantirish investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, turizm va maxsus iqtisodiy zonalar xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish imkoniyatiga ega istiqbolli yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi.

## MAVZUNING DOLZARBLIGI QUYIDAGI OMILLAR BILAN IZOHLANADI:

Birinchidan, qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanib, 2024–yilda yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi 444,6 trln so‘mga yetgan [9]. Ushbu sohaga xorijiy kapital, suv tejovchi texnologiyalar hamda zamonaviy boshqaruv tajribasini jalb qilish ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, hududlar kesimida investitsion faollikni yanada faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois soliq imtiyozlarini nisbatan kam rivojlangan hududlarga yo‘naltirish investitsion muvozanatni mustahkamlash, yangi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda hududiy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, turizm sohasi xizmatlar eksportini kengaytirish va bandlikni oshirishda katta salohiyatga ega. 2024–yilda O‘zbekistonga 8,2 mln nafar xorijiy fuqaro turistik maqsadlarda tashrif buyurgan [13]. Bu esa mehmonxona infratuzilmasini yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

To‘rtinchidan, maxsus iqtisodiy zonalar eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun import qilinadigan xomashyo va butlovchi qismlar bo‘yicha bojxona xarajatlarini kamaytirish ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, eksport raqobatbardoshligini oshirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar nazariyasida S. Hymerning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. U xorijiy investitsiyalarni oddiy kapital harakati sifatida emas, balki kompaniyalarning xalqaro bozorlarda nazorat, ustunlik va raqobat afzalliklarini qo‘lga kiritish vositasi sifatida izohlaydi [1]. Hymer yondashuviga ko‘ra, xorijiy investorlar kapital kiritilayotgan mamlakatdagi barqaror huquqiy muhit, soliq imtiyozlari, ishlab chiqarish xarajatlarining maqbulligi hamda bozorga kirish imkoniyatlarini muhim omillar sifatida baholaydi.

R. Vernonning “mahsulot hayotiy sikli” nazariyasiga ko‘ra, yangi mahsulotlar dastlab rivojlangan mamlakatlarda yaratiladi, keyinchalik esa ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va yangi bozorlarga chiqish maqsadida boshqa mamlakatlarga ko‘chiriladi [2]. Mazkur nazariya O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligi, turizm va sanoat tarmoqlariga xorijiy kapitalni jalb etish imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslab beradi.

P. Buckley va M. Casson transmilliy kompaniyalar faoliyatini ichki bozor xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda xalqaro ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish bilan bog‘laydi [3]. Ularning ilmiy qarashlari maxsus iqtisodiy zonalarda bojxona imtiyozlarini qo‘llash, import qilinadigan xomashyo va butlovchi qismlar xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rag‘batlantirish zarurligini nazariy jihatdan asoslaydi.

Mahalliy tadqiqotchilardan A. Madaminov to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish omillarini tahlil qilib, investitsiya muhiti, iqtisodiy barqarorlik, modernizatsiya jarayonlari, raqobatbardoshlik hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini asosiy omillar sifatida ko‘rsatadi [4]. Uning yondashuviga ko‘ra, xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga nafaqat kapital, balki yangi texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv tajribasi

va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini ham olib kiradi.

J. Hoshimov to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning nazariy va metodologik asoslarini o‘rganib, xorijiy kapitalning real sektor tarmoqlari hamda erkin iqtisodiy hududlarda jamlanishi mamlakat iqtisodiy o‘sishida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi [5]. Uning ilmiy qarashlari maxsus iqtisodiy zonalarda bojxona preferensiyalarini kengaytirish va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar bilan uyg‘unlashadi.

B.Y. Xodiyev iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda hududiy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratadi [6]. Ushbu yondashuv hududiy soliq imtiyozlari, turizm infratuzilmasini rivojlantirish va maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini rag‘batlantirish orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi.

Adabiyotlar sharhi natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari, hududiy rag‘batlantirish mexanizmlari, infratuzilma rivoji, huquqiy barqarorlik hamda investorlar xarajatlarini optimallashtirish muhim omillar hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari, turizm infratuzilmasi, qishloq xo‘jaligi hamda maxsus iqtisodiy zonalar o‘zaro bog‘liq investitsion tizim sifatida kompleks tarzda o‘rganildi.

Shuningdek, rasmiy statistik ko‘rsatkichlar tahlil qilinib, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy tahlil asosida baholandi. Tadqiqot davomida investitsion jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarni baholash hamda ustuvor yo‘nalishlarni belgilashga alohida e’tibor qaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, 2024–yilda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 493,7 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, ularning salmoqli qismi xorijiy investitsiyalar va kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelgan [8]. Mazkur holat mamlakat iqtisodiyotida investitsion faollikning ortib borayotganini hamda xorijiy kapitalning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati kuchayib borayotganini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval
**2024–yilda asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari** [8]

| Moliyalashtirish manbasi | Hajmi, trln so‘m | Ulushi, % |
|---|---|---|
| **Kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar** | 159,6 | 32,3 |
| **To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar** | 150,5 | 30,5 |
| **Korxona mablag‘lari** | 87,0 | 17,6 |
| **Aholi mablag‘lari** | 32,0 | 6,5 |
| **O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar** | 23,6 | 4,8 |
| **Respublika budjeti** | 22,8 | 4,6 |

1–jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hamda kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar tarkibida yetakchi o‘rinni egallaydi. Mazkur holat O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy kapitalning ahamiyati va investitsion jarayonlardagi faolligi yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Muallifning fikricha, ushbu investitsiyalarni iqtisodiyotning yuqori salohiyatga ega tarmoqlariga hamda investitsion faolligi nisbatan past bo‘lgan hududlarga maqsadli yo‘naltirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, hududiy rivojlanish muvozanatini ta’minlash va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirishga xizmat qiladi (1-rasm).




1–rasm. TTXIni jalb etishning ustuvor yo‘nalishlari

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2024–yilda respublikada yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi 444,6 trln so‘mga yetgan bo‘lib, so‘nggi besh yil davomida 18,5 foizga o‘sgan [9]. Mazkur ko‘rsatkich qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish yo‘nalishi xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun yuqori salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun taqdim etiladigan soliq imtiyozlari qo‘llaniladigan iqtisodiyot tarmoqlari ro‘yxatiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish yo‘nalishini kiritish taklif etiladi.

**Mazkur taklif quyidagi omillar bilan asoslanadi:**

Birinchidan, qishloq xo‘jaligida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish sohaning barqaror rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, sohaga suv tejovchi texnologiyalar, zamonaviy issiqxona tizimlari, urug‘chilik, intensiv bog‘dorchilik hamda raqamli agrotexnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, xorijiy investitsiyalar mahsulot sifati, xalqaro standartlarga muvofiqlik va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, agrar investitsiya loyihalarining kengayishi qishloq hududlarida bandlik darajasini oshirish va aholi daromadlarini ko‘paytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval
Qishloq xo‘jaligini imtiyozli ro‘yxatga kiritish taklifining asoslanishi[1]

| Asoslash mezoni | Mavjud holat | Muallif taklifi | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|
| **Kapital** | Agrar loyihalarni moliyalashtirish hajmini kengaytirish zarurati mavjud | TTXI uchun soliq imtiyozlarini qishloq xo‘jaligi sohasiga tatbiq etish | Xorijiy kapital oqimi oshadi |
| **Texnologiya** | Zamonaviy texnika va suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etishga ehtiyoj mavjud | Xorijiy texnologiyalarni jalb qilish | Hosildorlik va samaradorlik oshadi |
| **Eksport** | Mahsulotlarning xalqaro standartlarga mosligini kengaytirish zarur | Xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni rag‘batlantirish | Eksport salohiyati kengayadi |
| **Bandlik** | Qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlarini yaratishga ehtiyoj mavjud | Agrar investitsiya loyihalarini ko‘paytirish | Bandlik va aholi daromadlari oshadi |

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari investitsiya hajmiga qarab tabaqalashtirilgan holda qo‘llaniladi. Amaldagi tartibga muvofiq, 300 ming AQSH dollaridan 3 mln AQSH

1 Statistik ma’lumotlar va muallif takliflari asosida muallif tomonidan tuzildi.

dollarigacha miqdorda investitsiya kiritilganda — 3 yil, 3 mln AQSH dollaridan ortiq va 10 mln AQSH dollarigacha bo‘lgan investitsiyalar uchun — 5 yil, 10 mln AQSH dollaridan ortiq investitsiyalar uchun esa — 7 yil muddatga yer solig‘i, mol-mulk solig‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lashdan ozod etish imtiyozlari taqdim etiladi [11; 12].

Mazkur imtiyozlarni Toshkent viloyatining 4–5–toifadagi tumanlarida ro‘yxatdan o‘tgan hamda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etish ham iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi.

**Ushbu taklif quyidagi omillar bilan asoslanadi:**

Birinchidan, Toshkent viloyati tumanlarining investitsion salohiyati va iqtisodiy faolligini yanada uyg‘un rivojlantirish maqsadida ayrim hududlarda qo‘shimcha investitsion rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, 4–5-toifadagi tumanlarda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va investitsion jozibadorlikni yanada oshirish maqsadida qo‘shimcha iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, soliq imtiyozlari investorlar xarajatlarini kamaytirish orqali investitsiya loyihalarining rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, hududiy imtiyozlar yangi ish o‘rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy iqtisodiy faollikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval
TTXI hajmiga qarab soliq imtiyozlarini hududiy tatbiq etish mexanizmlari[2]

| TTXI hajmi | Imtiyoz muddati | Imtiyoz turi | Muallif taklif etayotgan hudud |
|---|---|---|---|
| **300 ming – 3 mln AQSH dollari** | 3 yil | Yer, mol-mulk va suv solig‘idan ozod qilish | Toshkent viloyatining 4– va 5–toifadagi tumanlari |
| **3 mln – 10 mln AQSH dollari** | 5 yil | Yer, mol-mulk va suv solig‘idan ozod qilish | Toshkent viloyatining 4– va 5–toifadagi tumanlari |
| **10 mln AQSH dollaridan ortiq** | 7 yil | Yer, mol-mulk va suv solig‘idan ozod qilish | Toshkent viloyatining 4– va 5–toifadagi tumanlari |

Quyidagi rasmda O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha muallif tomonidan taklif etilgan ustuvor yo‘nalishlar aylanma mexanizm ko‘rinishida tasvirlangan. Unda soliq imtiyozlarini maqsadli ravishda kengaytirish, qishloq xo‘jaligi va turizm sohalarini qo‘llab-quvvatlash, Toshkent viloyatining 4–5–toifadagi tumanlarini investitsion jihatdan rag‘batlantirish, shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun bojxona imtiyozlarini kengaytirish orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi va eksport salohiyatini oshirish jarayoni ifodalangan (2-rasm).




2–rasm. Hududiy soliq imtiyozlarining investitsiyalar hajmiga ta’siri

2 Amaldagi soliq imtiyozlari hamda muallif takliflari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Turizm sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda yuqori salohiyatga ega bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur soha transport, savdo, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik, madaniy meros obyektlari, mehmonxona xo‘jaligi hamda xizmatlar eksporti bilan bevosita bog‘liqdir. 2024–yilda O‘zbekistonga 8,2 mln nafar xorijiy fuqaro turistik maqsadlarda tashrif buyurgan [13]. Turistlar oqimining ortib borishi mehmonxona infratuzilmasini yanada kengaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, turizm sohasida investorlar tomonidan yangi mehmonxonalarni qurish va ularni jihozlash xarajatlarining bir qismini Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan subsidiya qilish taklif etiladi.

Mazkur taklif quyidagi omillar bilan asoslanadi:

Birinchidan, mehmonxona qurilishi yuqori kapital sig‘imiga ega bo‘lgan investitsiya loyihasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, xarajatlarning bir qismini subsidiya qilish investorlarning boshlang‘ich moliyaviy yukini kamaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, subsidiya mexanizmi joylashtirish quvvatlarini kengaytirish orqali sayyohlar oqimini ko‘paytirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, mehmonxona infratuzilmasining rivojlanishi xizmatlar eksportini kengaytirish, bandlik darajasini oshirish va hududiy daromadlarni ko‘paytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (4-jadval).

4-jadval

Mehmonxona subsidiyasini joriy etish va uning iqtisodiy asoslanishi[3]

| Mezon | Mavjud holat | Muallif taklifi | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|
| **Kapital sig‘imi** | Mehmonxona qurilishi katta moliyaviy xarajatlarni talab etadi | Xarajatlarning bir qismini subsidiya qilish | Investor xavfi va moliyaviy yuki kamayadi |
| **Turistlar oqimi** | Joylashtirish quvvatlariga talab ortib bormoqda | Mehmonxona quvvatlarini kengaytirish | Xizmat sifati va turistlarga xizmat ko‘rsatish darajasi oshadi |
| **Hududiy rivojlanish** | Turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish orqali xizmatlar sifati, sayyohlar oqimi va hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. | Davlat moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish | Hududiy turizm infratuzilmasi rivojlanadi |
| **Multiplikativ ta’sir** | Turizm boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bilan uzviy bog‘liq | Mehmonxona atrofidagi xizmatlarni rivojlantirish | Bandlik va hududiy daromadlar oshadi |

Quyidagi 3–rasmda turizm sohasida investitsiyalarni rag‘batlantirishning muallif tomonidan taklif etilgan bosqichma-bosqich mexanizmi aks ettirilgan. Unda Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan subsidiya ajratish orqali mehmonxona qurilishi xarajatlarini qisqartirish, turizm loyihalarining investitsion jozibadorligini oshirish, joylashtirish quvvatlarini kengaytirish hamda natijada sayyohlar oqimi va xizmatlar eksporti hajmini ko‘paytirish jarayoni izchil ravishda ifodalangan (3-rasm).




3–rasm. Turizm sohasida investitsion rag‘batlantirish mexanizmi

Maxsus iqtisodiy zonalar xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda hududiy iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonunda maxsus iqtisodiy zonalar chet el va mahalliy investitsiyalarni, yuqori

3 Turizm statistikasi hamda muallif takliflari asosida muallif tomonidan tuzildi.

texnologiyalar hamda zamonaviy boshqaruv tajribasini jalb qilish uchun alohida huquqiy rejimga ega hudud sifatida belgilangan [14].

Muallifning fikricha, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish va uni eksportga realizatsiya qilishda foydalaniladigan import xomashyo, materiallar hamda butlovchi qismlarni bojxona toʻlovlaridan ozod etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur taklif quyidagi omillar bilan asoslanadi:

Birinchidan, import qilinadigan xomashyo va butlovchi qismlar boʻyicha bojxona toʻlovlari ishlab chiqarish tannarxining oshishiga taʼsir koʻrsatadi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish tannarxining pasayishi eksport mahsulotlarining narx boʻyicha raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Uchinchidan, bojxona imtiyozlari maxsus iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarish loyihalarini joylashtirishni investorlar uchun yanada jozibador qiladi.

Toʻrtinchidan, import xomashyosini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda eksport hajmini kengaytirish imkoniyatlari ortadi (5-jadval).

5-jadval

**MIZ ishtirokchilariga bojxona imtiyozlarining samarasi[4]**

| Yoʻnalish | Mavjud holat | Muallif taklifi | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|
| **Import xomashyo** | Import qilinadigan xomashyo tannarxga qoʻshimcha xarajat yuklaydi | Bojxona toʻlovlaridan ozod qilish | Ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi |
| **Eksport** | Mahsulotlarning narx boʻyicha raqobatbardoshligini yanada oshirish zarur | Eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish | Eksport hajmi va eksport salohiyati oshadi |
| **Investor xarajatlari** | Operatsion xarajatlarni optimallashtirishga ehtiyoj mavjud | MIZ preferensiyalarini kengaytirish | Investorlarning qiziqishi va investitsion faolligi ortadi |
| **Qoʻshilgan qiymat** | Xomashyoni chuqur qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish zarur | MIZlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish | Yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi oshadi |

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston iqtisodiyotiga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda umumiy imtiyozlardan koʻra, aniq tarmoqlar va hududlarga yoʻnaltirilgan ragʻbatlantirish mexanizmlari yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada muallif tomonidan ilgari surilgan toʻrtta taklif oʻzaro bogʻliq hamda bir-birini toʻldiruvchi investitsion mexanizmlar sifatida baholanadi.

Mazkur takliflar iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga xorijiy kapital oqimini kengaytirish, hududiy investitsion faollikni oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlash va zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi (4-rasm).




4–rasm. Muallif takliflarining TTXIni jalb etishga taʼsiri

4 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ushbu mexanizmda muallif tomonidan ilgari surilgan takliflarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ta’siri bosqichma-bosqich tarzda aks ettirilgan. Unda har bir taklif dastlab bevosita iqtisodiy ta’sirni shakllantirishi, keyingi bosqichda esa investitsion faollikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qilishi ifodalangan.

Shuningdek, mazkur mexanizmda soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar hamda hududiy rag‘batlantirish choralarining o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhitni shakllantirishi va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida investitsion jozibadorlikni oshirishi ko‘rsatib berilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish, qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish hamda hududlar iqtisodiy faolligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari, turizm infratuzilmasini subsidiya qilish va hududiy rag‘batlantirish mexanizmlarini o‘zaro uyg‘un holda qo‘llash yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda umumiy imtiyozlardan ko‘ra, aniq tarmoqlar va hududlarga yo‘naltirilgan rag‘batlantirish mexanizmlari samaraliroq hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada muallif tomonidan ilgari surilgan to‘rtta taklif o‘zaro bog‘liq hamda bir-birini to‘ldiruvchi investitsion mexanizmlar sifatida baholanadi.

Xususan, qishloq xo‘jaligini imtiyozli tarmoqlar ro‘yxatiga kiritish agrar loyihalarga xorijiy kapital oqimini rag‘batlantirish va hududlarda investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi. Toshkent viloyatining 4–5–toifadagi tumanlariga soliq imtiyozlarini tatbiq etish investorlar xarajatlarini kamaytirish orqali hududiy investitsion muvozanatni ta’minlash imkonini beradi. Mehmonxona qurilishi xarajatlarining bir qismini subsidiya qilish turizm loyihalarining investitsion jozibadorligini oshiradi hamda sayyohlar oqimi va xizmatlar eksporti hajmining kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maxsus iqtisodiy zonalarda foydalaniladigan import xomashyosi, materiallar va butlovchi qismlarni bojxona to‘lovlaridan ozod qilish esa mahsulot tannarxini pasaytirish, eksport hajmini kengaytirish va maxsus iqtisodiy zonalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur mexanizm soliq, subsidiya va bojxona imtiyozlarini maqsadli qo‘llash orqali xorijiy investorlar uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish hamda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini namoyon etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hymer S.H. *The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment*. — Cambridge: MIT Press, 1976. — 253 p.
2. Vernon R. International Investment and International Trade in the Product Cycle // *Quarterly Journal of Economics*. — 1966. — Vol. 80, № 2. — P. 190–207.
3. Buckley P.J., Casson M. *The Future of the Multinational Enterprise*. — London: Macmillan, 1976. — 116 p.
4. Madaminov A.R. O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish omillari // *Ilmiy maqola*. — 2025.
5. Hoshimov J. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning nazariy va metodologik asoslari // *Interfinance*. — 2023.
6. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. *Iqtisodiyot nazariyasi: darslik*. — Toshkent: Barkamol Fayz Media, 2017. — 784 b.
7. OECD. *Investment Incentives, Promotion and Facilitation*. — Paris: OECD, 2025.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *O‘zbekiston Respublikasida 2024–yil yanvar–dekabr oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar*. — Toshkent, 2025.
9. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. *2020–2024–yillarda O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligining rivojlanishi*. — Toshkent, 2025.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. *Mamlakatimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida*. PF–97–son. — 23.06.2025. https://lex.uz/uz/docs/-7594188
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. *To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*. PF–3594–son. — 11.04.2005. https://lex.uz/docs/-555778?ONDATE=25.06.2025
12. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. *To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari ro‘yxati kengaytirildi*. — Toshkent, 2025.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. *Mehmonxona xo‘jaligi faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida*. 550–son. — 07.09.2024. https://lex.uz/docs/-7104874?ONDATE=17.03.2026
14. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. *Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida*. O‘RQ–604–son. — 17.02.2020. https://lex.uz/docs/-4737511
15. UNCTAD. *The Impact of International Tax Reforms on Special Economic Zones*. — Geneva: United Nations, 2023.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**